

**JAVOBGARLIK VA JAZODAN OZOD QILISHNING TARIXIY SHAKLLARI VA
ULARNING QO'LLANILISHI**

Amirova Sharofat Axrolovna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu maqolada jinoyat qonunchiligida uchraydigan tushunchalar- javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalari, uning mamlakatimiz hududidagi dastlabki ko'rinishlari, tarixiy qo'llanilishi va o'sha davrdagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *javobgarlik va jazodan ozod qilish, Avesto, shariat qonunlari, odat huquqi, yarashuv instituti.*

HISTORICAL FORMS OF LIABILITY AND IMPUNITY AND THEIR APPLICATION

Abstract: *This article, which is brought to your attention, talks about the concepts found in the criminal law - issues of responsibility and impunity, its first manifestations in the territory of our country, its historical application and its importance at that time.*

Key words: *responsibility and exemption from punishment, Avesta, Sharia laws, customary law, institution of reconciliation.*

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ФОРМЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И БЕЗНАКАЗАННОСТИ И
ИХ ПРИМЕНЕНИЕ**

Аннотация: *В данной статье, которая предлагается вашему вниманию, говорится о понятиях, встречающихся в уголовном праве, - вопросах ответственности и безнаказанности, ее первых проявлениях на территории нашей страны, ее историческом применении и значении в то время.*

Ключевые слова: *ответственность и освобождение от наказания, Авеста, законы шариата, обычное право, институт примирения.*

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti bo'yicha tarixiy va yuridik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili, ushbu institutning nafaqat amaldagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida, balki bir necha asrlar oldin yurtimiz hududida mavjud bo'lgan davlat tuzilmalarida ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Zero, jinoyat va jazo tizimi odat huquqiz ardo'shtiylik dinining asosiy manbasi bo'lgan Avesto va shariat normalari, asosida tartibga solingan davrlarda dastlabki tergov tushunchasi mavjud bo'lmaganbo'lsada, shariat normalari amal qilgan davrda yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining dastlabki elementlari va o'ziga xos mexanizmlari mavjud bo'lgan.

Zardo'shtiylik dinining asosiy manbasi bo'lgan va odat normalaridan iborat bo'lgan "Avesto"ning 4 dona kitobi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular ichida "Vandidod" (ayrim manbalarda "Videvdat") kitobi turli sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solgan qonun normalari (nizom)dan iborat bo'lgan. "Vandidod" Avestoning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, fargardlarga bo'lingan hamda unda boshqa huquq sohalari singari jinoyatlar, ularning turlari ("ochiripta", "avauyrayshta", "aridush" va "pishavantu") va ularga beriladigan jazolar tartibga solingan. Biroq, "Vandidod"da belgilangan normalarning tahlilidan ayonki, unda qanday harakatlar jinoyat sanalishi va sanalmasligi, qanday ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarga jazo berilmasligi hamda qaysi gunohlar afv etilishi mumkinligi belgilangan bo'lsada, aybdorning jabrlangan shaxs bilan yarashuviga oid normalar tartibga solinmagan.

Keyinchalik, VIII srda yurtimiz hududlari Arablar tasarrufiga o'tganidan so'ng, sud-huquq tizimiga shariat normalarining qo'llanilishi belgilangan. Bunda yarashuv instituti shariat normalari asosida tartibga solingan musulmon huquqida jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishda nihoyatda muhim o'rin egallagan. Mazkur davrlar VIII asrdan to XIX asrning oxiriga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan bo'lib, bunda jinoyatlar toifalarga ajratilgan holda quyidagicha uchga bo'lingan: birinchisi, aniq jazo (sanksiya) –hadd bilan jazolanadigan jinoyatlar, ikkinchisi, qonbahosi qoidalari asosida jazo beriladigan jinoyatlar va uchinchisi, ta'zir bilan jazolanadigan jinoyatlar. Ushbu jinoyatlarning ikkinchi toifasida bugungi kunda amaldagi jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lgan yarashuv institutidagi qoidalarga o'xshash qoidalar amal qilgan bo'lib, bunda aybdordan qasos olinishi, aybdorning diya (xun) to'lashi yoki aybdorni avf qilish masalasi jabrlanuvchi yoki uning vorislari tomonidan hal qilingan. Ya'ni, jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxsni kechirishi, da'vosidan voz kechishi va u bilan yarashishi aybdorni javobgarlikdan hamda jazodan ozod qilinishiga olib kelgan. Bundan tashqari, shariat normalarida yarashuv masalalarini sulh instituti ham tartibga solgan bo'lib, jinoyatlar bo'yicha kelishilgan sulh diyat bilan bog'liq holda tuzilgan. Bunda jabrlanuvchiga tovon to'lashda va u bilan kelishuvga erishishda jinoyatning qasddan va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Ya'ni, qasddan sodir etilgan jinoyatda to'lanadigan tovon diyat miqdoridan kam bo'lmagan holda sulh tuzilgan va jinoyat ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganda to'lanadigan tovon diyatning miqdoridan oshib ketmasligi shart bo'lgan.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan Xiva va Qo'qon honligi hamda Buxoro amirligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng sud sohasida bir qancha qonuniy hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, qozilik va biylik sudlari tomonidan shariat va odat normalarining qo'llanilishi davom etgan. Ushbu davrda mamlakatimiz hududida shariat va odat normalari bilan birgalikda 1864-yilning 20-noyabrida qabul qilingan Jinoyat sudlov ishlarini yuritish ustavi ham amal qilgan bo'lib, u dastlab nasroniy aholiga va 1990-yillardan musulmon aholiga ham ayrim turdagi bosqinchilik, qotillik kabi jinoyatlarni ta'qib qilishda tadbiriq qilingan. Shu

o`rinda aytish joizki, Jinoyat sudlov ishlarini yuritish ustavi mamlakatimiz hududida jinoyat va jazo tizimini tartibga soluvchi ilk kodifikasiyalashtirilgan qonun sifatida nomoyon bo`lgan. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti kesimida Jinoyat sudlov ishlarini yuritish ustavi normalarini tahlil qiladigan bo`lsak, ushbu hujjatdaham yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti mavjud bo`lganligini ko`rish mumkin. Xususan, Jinoyat sudlov ishlarini yuritish ustavining 5-moddasida jinoyat ish yoki nojo`ya qilmish (prostupok)dan jabrlanuvchi ariza bilan murojaat qilganligi sababli qo`zg`atilgan jinoyat ishi tomonlarning yarashilganligi munosabati bilan tugatilishiga ruxsat berilganligi, 16-moddasida ayblanuvchining jinoiy javobgarligi yuzasidan ta`qib qilinishi mumkin emasligi va qo`zg`atilgan jinoyat ishi tugatilishi kerak bo`lgan asoslar bayon etilgan bo`lib, mazkur moddaning birinchi qismi 3-kichik bandida “qonunda nazarda tutilgan hollarda ayblanuvchi yoki huquqbuzar bilan yarashganligi munosabati bilan” degan mazmundagi asos belgilanganligi, 20-moddasida qonun tomonidan kelishuv asosida tugatish mumkin bo`lgan bunday yarashish ayblanuvchini javobgarlikdan ozod qilishi mumkinligi (agar fuqaroviy da`vo masalalari mavjud bo`lmasa), 35-moddasida ... aybdordar qattiq jazolarga duchor bo`lishlari mumkin bo`lsa ham, zarar va yo`qotishlar qurbonlarining shikoyati bo`lmasa ish yarashuv yo`li bilan tugatilishi mumkinligi, 104-moddasida jinoyat ishini yarashuv asoslariga ko`ra tugatilishiga ruxsat berilgan hollarda, sudya faqat yarashuvchi taraflar tomonidan taqdim etilgan yoki ko`rsatilgan dalillarni ko`rib chiqish bilan cheklanishi lozimligi, 120-moddasida jinoyat ishi tomonlarning yarashishi bilan tugatilishi mumkin bo`lgan hollarda, odil sud ularni yarashishga ko`ndirishi shart va bu samara bermagan hollardagina u unga berilgan vakolatlar doirasida ayblov hukmini chiqarishi mumkinligi, 165-moddasida jinoyat ishini yarashirish bilan tugatilishi mumkin bo`lgan hollarda, kongress raisi jabrlanuvchini ayblanuvchi bilan yarashirishga harakat qilishi kerakligi, 741-moddasida jinoyat ishini taraflarning yarashishi bilan tugatilishi mumkin bo`lgan hollarda, xususiyl prokuror sudga, agar u zarur deb topsa, qonunda prokurorga berilgan tushuntirishlarni taqdim etishi kerakligi kabi masalalar belgilanganligini ko`rish mumkin.

Qabul qilingan davrda shariat va odat huquqi asosida ish ko`ruvchi qozilik va biylik sudlari faoliyati batamom tugatilgan. Xususan, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti O`zbekiston SSRning 1926-yildagi JK ning normalarida bevosita belgilanmagan bo`lsada, uning 271-moddasida xun olish, ya`ni birovni o`ldirganlik yoki badaniga shikast etkazganlik uchun, bu ishni qilganlardan yoki uning qarindoshlaridan o`ch olish maqsadida yoki aybdorni javobgarlikdan ozod qilish uchun undan mahalliy xalq urf-odati bo`yicha mol olish, shuningdek 272-moddasida borimta (baramta), ya`ni ozor bergan yoki moddiy zarar yetkazgan shaxsning o`zi yoki qarindoshlarini mukofot to`lashga majbur qilish maqsadida aybdorning hayvonini yoki boshqa mulkini o`zboshimchalik bilan egallab olganlik

uchun jinoiy javobgarlik choralari belgilangan . Keyinchalik 1959-yilning 21-mayida O`zbekiston SSRning yana bitta JK qabul qilingan bo`lib, ushbu qonunda ham yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti bevosita normalarning o`zida belgilanmagan.

O`zbekiston Respublikasining 1959-yildagi Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikdan ozod etish instituti amaldagi Jinoyat kodeksidan tubdan farq qiladi. Jumladan, 1959-yildagi Jinoyat kodeksida quyidagi holatlar javobgarlikdan ozod qilishning turlari hisoblangan:

A) jinoiy javobgarlikka tortish muhlatlarining o`tishi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 46- modda);

B) ishni tergov qilish yoki sudda ko`rish davrida sharoit o`zgarishi tufayli, harakat ijtimoiy xavflilik xarakterini yo`qotgan yoki o`sha jinoyat qilgan shaxs ijtimoiy xavfli emas, deb hisoblanishi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 48-modda);

V) aybdorni jamoat tashkilotlariga kafilga berib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 49-modda);

G) ishni o`rtoqlik sudiga berib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 49-1 moddasi);

D) Jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, ma`muriy javobgarlikka tortish (JK 48-1 moddasi).

Yarashuv to`g`risidagi normalar 1959-yildagi O`zbekiston SSR JPK asosida tartibga solingan bo`lib, uning 5-moddasida jinoyat ishi qo`zg`atilmaydigan asoslar belgilangan bo`lib, uning birinchi qismining 6-bandida jabrlanuvchi kodeksda nazarda tutilgan hollarda ayblanuvchi bilan yarashganda jinoyat ishi qo`zg`atilmasligi, qo`zg`atilgan jinoyat ishi esa tugatilishi belgilangan .1959-yildagi O`zbekiston SSR JPKning 29-bobi Jabrlanuvchining arizasi bo`yicha qo`zg`atiladigan jinoyat ishlari bo`yicha ish yuritish deb nomlanib, unda yarashuvni qo`llash asoslari belgilangan. Jumladan, jabrlanuvchining arizasi bo`yicha qo`zg`atiladigan jinoyat ishlari bo`yicha ish yuritish tartibi deb nomlangan 372-moddaning 2-qismida yarashuv instituti ta`sir boirasiga tushuvchi O`zbekiston SSR JKning 5ta moddasi keltirilgan bo`lib, bular 91-moddaning birinchi qismi (sog`liqni qisqa muddatga buzilishiga olib kelmagan qasddan badanga engil shikast etkazish), 93-moddaning birinchi qismi (sog`liqni buzilishiga olib kelmagan, jismoniy og`riq etkazish bilan bog`liq zarba berish, do`pposlash yoki boshqa zo`rlik harakatlarini amalga oshirish), 112-moddaning "a" bandi (tuxmat), 113-moddaning birinchi qismi (haqorat), 200-modda (o`zboshimchalik)da nazarda tutilgan jinoyatlarni tashkil etgan. O`zbekiston SSRning 1959-yildagi JK va JPK normalarining yuqoridagi tahlillaridan xulosa qilib aytganda, yarashuv to`g`risidagi normalar bevosita JK normalarida emas, balki Jinoyat-prosessual kodeksi normalari asosida tartibga solingan bo`lib, JKning 5ta moddasi (91-m., 1-q., 93-m.1-q., 112-m., "a" b., 113-m.1-q., 200-m.)da nazarda tutilgan jinoyatlarni tashkil etgan va faqatgina O`zbekiston SSR

JKning shu moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan taqdirdagina jinoyat sodir etgan shaxs yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning eng keng tarqalgan turlaridan yana biri da'vo muddatining o'tishi hisoblanadi. Ushbu muassasa juda uzoq vaqt oldin paydo bo'lgan va qadimgi Rimda ham ma'lum bo'lgan. Hozirgi vaqtda u ko'plab mamlakatlarning jinoiy va jinoyat-protsessual qonunchiligida, aksariyat hollarda - Romano-Germaniya huquqiy oilasi mamlakatlari tomonidan qo'llaniladi. Anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlarida ko'rib chiqilayotgan institutning qo'llanilishi cheklangan.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi JK 1994-yilning 22-sentyabrida qabul qilingan bo'lsada, ushbu qonunda ham yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi bevosita normalarda belgilanmagan edi. Javobgarlik va jazodan ozod qilishning quyidagi turlari mavjud edi:

XII bob. Javobgarlikdan ozod qilishning turlari

64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish

65-modda. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

66-modda. Aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

67-modda. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish

68-modda. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish

XIII bob. Jazodan ozod qilishning turlari

69-modda. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

70-modda. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish

71-modda. Aybdorni chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

72-modda. Shartli hukm qilish

73-modda. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

74-modda. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

75-modda. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish

76-modda. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish.

O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2001 yil 29 avgustdagi Qonunga ko'ra, JK "Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlangan

yangi 66¹-modda bilan to'ldirildi. O'zbekiston, unga ko'ra, 26 moddaga ko'ra, javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Ushbu institutning yanada rivojlanishi Jinoyat kodeksining moddalarini kengaytirish bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra ushbu norma qo'llanilishi mumkin. Xususan, 2004 yil 27 avgustdagi qonun bilan yarashtirish imkoniyatlari soni 30 ta moddaga yetdi. 2005 yil 31 dekabrda qonunga muvofiq 31 ta modda, 2009 yil 3 apreldagi qonun bilan ularning soni 40 ta. Bugungi kunda Jinoyat kodeksining 661-moddasiga (Yarashish munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish) ko'ra, tomonlarni yarashtirish instituti 45 ta modda va 60 jinoyat tarkibi bo'yicha mumkin. Yarashuv institutining qo'llanilishi natijasida jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan shaxslar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar samarasida yarashuv instituti jamiyatda sudlanganlar sonini kamaytirish bilan birga, insonlar hayoti va avlodlar taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oqibatlarining oldini oladi. Bu tomonlarning ixtiyoriy iqrorliklarini keng ko'lamli sud jarayonlaridan himoya qiluvchi, ushbu jarayonni tezlashtirish va soddalashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadigan samarali huquqiy institutdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Qonun va qonunosti normalar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 22.09.1994. www.lex.uz

1.2. Устав уголовного судопроизводства (от 20 ноября 1864 года)
<http://constitution.garant.ru/history/act1600-1918/3137> constitution.garant.ru
(<https://constitution.garant.ru/history/act1600-1918/3137/>) Устав уголовного судопроизводства Конституция Российской Федерации

1.3. O'zbekiston Sovet sotsialistik Respublikasining JK. –T. 1947. –122 b

1.4. Уголовный кодекс Узбекской ССР; Уголовно-процессальный кодекс Узбекской ССР (сизм. и доп. на 1 ноября 1983г.).–Т.,1983.

II. O'quv va ilmiy adabiyotlar

2.1. Ubaydulloh ibn Ma'sud. Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). –T.: Cho'lpon, 1994. –302 b

2.2. Xidoya: kommentarii musulmanskogo prava/ otv.red., prof. d.yu.n. A.X.Saidov. –T.: O'zbekiston, 1994. –498 s

2.3. Baxronov X. Mustamlakachilikdan–mustaqillikkacha: O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligining rivojlanish tarixi. –T.: «Falsafa va huquq» nashriyoti, 2007. –B.13-14

2.4. Dilshat Payziyev. Жамият ва инновациялар–Обществои инновации–Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> Retrospective analysis of the institution of exemption from criminal liability in connection with reconciliation in the Republic of Uzbekistan. pp.329-336

2.5. Сюкияйнен Л.Р., Лихачев В.А. Мусульманское право. (Структура и основные институты). М., «Наука». 1984. –178б

2.13. Пайзиев Д. ИНСТИТУТ ПРИМИРЕНИЯ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН